



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATIDA SYUJET-RO'LLI O'YINLARNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Salimova Dilmira Farxodovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6991567>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> August 2022

Accepted: 03<sup>rd</sup> August 2022

Online: 05<sup>th</sup> August 2022

### KEY WORDS

maktabgacha ta'lim, bola,  
syujet, rol, o'yin, personaj,  
intellektual, ertak,  
sahnalashtirish, o'yinchoq,  
oila.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida syujet-ro'lli o'yinlarni rivojlantirish xususiyatlari, o'yin orqali bolalarning fikrlashi, dunyoqarashi shakllanish yo'llari keltirib o'tilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama barkamol va sog'lom bo'lib ulg'ayishlarida syujet-rolli o'yinlarning ahamiyati haqida so'z boradi.*

Respublikamizda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida syujet-rolli o'yinlardan foydalanish bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni turli xil o'yinlar vositasida atrof-muhit, hayot haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga qaratilgan tashkiliy-metodik ta'minotini ishlab chiqish zarurati mavjud. Shuningdek, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini amalga oshirish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, "Men" konsepsiyasi yaratish bilan bog'liq samarali faoliyat usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Insoniyat tarixida o'yinlar madaniyat ko'rinishi sifatida dastlab yosh bolalar hayotiga kirib kelgan. O'yin yordamida bolalar dastlab ularning mohiyatini anglamagan holda narsalar va buyumlarni taniy boshlaydilar. Ularning joylashish

o'rni, rangi, tovushi, shakli, o'ziga xos belgilarini bilishga harakat qiladilap. Ular buyumlarni o'rganadilar, kuzatadilar, esda saqlaydilar, buning natijasida bolalarning dunyoqarashi kengayadi. O'yinlarning tabiatini tushunish, ularning bolalarga ta'lim-tarbiya beruvchi va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini anglash ularning o'ziga xos jihatlar va tabiatini bilish demakdir.

"O'yin – tarbiyalash va hordiq chirapish vositalaridan biri. Ma'lumki, inson o'z hayotida o'yin, o'qish, mehnat, dam olish kabi mashg'ulotlar bilan band bo'ladi" [3]. Maktabgacha yoshda yetakchi faoliyat o'yin bo'lganligi bois o'quv-tarbiyaviy faoliyatda o'yinli texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. O'yin insonni har tomonlama pivojlantiruvchi mashg'ulot turi hisoblanadi. O'yin faoliyati o'qish faoliyati bilan uyg'unlashadi, uning tarkibiy qismiga aylanadi. Shuning uchun ham, ta'limning aksariyat vazifalari o'yinlar yordamida amalga oshiriladi.



Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yindagi ijodkorligi kreativlik, bilim va tasavvurlarini uyg'unlashtirish, o'z fikri va hissiyotlarini ifodalash, yangi qiyofani yaratish, uni rolda ijro etish va yuzaga chiqarishida ifodalanadi. Syujet-rolli o'yinlarning rivojlanishi bolada ijodiy qobiliyatlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, mazkur qobiliyatlar o'yin davomida rivojlanib boradi.

O'yin nazariyasiga alohida hissa qo'shgan mutaxassislardan biri - Z.Freyd hisoblanadi. U o'yinlarga nisbatan ikki xil yondashuvni ilgari suradi. Birinchi yondashuv doirasida o'yinlarga ijtimoiy hayotda imkonsiz bo'lgan ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaralsa, ikkinchi yondashuv bolaning muayyan ehtiyojlari va his-tuyg'ulari o'yin predmeti sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda bola o'z tabiatini o'zgartirib o'yin jarayonida faollashadi [4].

L.C.Vigotskiy g'oyaning paydo bo'lishini o'yin genezisidagi harakat va fikr orasidagi prinsipial jihatdan yangi vaziyatni aks ettiruvchi eng muhim sifat o'zgarishi sifatida tavsiflagan [5]. O'yin jarayonida "fikrdan vaziyatga qarab borish imkoniyati" transformasiyalanadi. Natijada bola faoliyatining yangi tipi paydo bo'ladi, ya'ni fikrlash faoliyatdan amaliy faoliyatga o'tadi. Shaxsiy va axloqiy sifatlarni ifodalaydi. Syujet-rolli o'yin bolaning bilimi, tasavvuri va tajribaning to'plab borilishi bilan mazmunli tashkil etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning noyoblighi shundaki, o'z tasavvuri va tajribalarini hissiy ifodalaydi. Biroq bola yangi g'oyani yaratish va uni amalga oshirishda avval o'zlashtirgan bilimlar bilan taqqoslaydi. Natijada ularda dissosiasiyalash, assosiasiyalash va kombinasiyalashtirish layoqati rivojlanadi. Bolalar rol ijro etish

orqali atrof-muhit hamda voqeliklarni, jamiyatdagi turli insonlarning hatti-harakatlari haqida taassurotga ega bo'ladi. O'yin-bu tajribali taassurotlarni ijodiy qayta ishlash, ularni birlashtirish va ulardan bolaning ehtiyojlari va istaklariga javob beradigan yangi voqelikni qurishdir. Shunday ekan, bolalar kattalarga nisbatan tezroq, televizor, kompyuter, mobil telefon va boshqa gadjetlarni o'zlashtirish uchun vaqt topadilar. Hozirgi kun bolalari uchun imkoniyatlar eshigi keng ochilgan. Masalan, ular ota-onalari bilan birgalikda bir xil qo'shiqlarni tinglashi, televizorda bir xil dasturlarni tomosha qilishi, oilasi bilan kafe va restoranlarga tashrif buyurishi, chet elga ta'tilga chiqib sayohat qilishi mumkin. Ular turli xildagi mashhur brendlar, avtomobil markalari va reklamalar bilan dunyoqarashlarini boshqarmoqdalar deb ayta olamiz.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli yoshdagi bolalar faoliyatida alohida o'rinni syujet-ro'lli o'yinga ajratiladi. Syujet-ro'lli o'yinning muhim xususiyati unda bolaning kattalar ro'lini o'ynaydigan va kattalar orasida kuzatiladigan barcha narsalarni qayta ishlab, kattalarning mehnat yoki ijtimoiy funksiyalarini nusxalash, ular o'rtasidagi munosabatlarni modellashtiradigan imitativ yoki butunlay o'ylab topilgan vaziyatning mavjudligidir. O'yin davomida bola o'zi xohlagan hayotot olamida bo'lishini ko'rsatadi va u o'zi xohlagan joyda «bo'ladi», undagi qiziqarli va jozibali tadbirlarda ishtirok etadi. Butun maktabgacha yosh davrida o'yinning rivojlanish dinamikasi birinchi darajadan (kichik maktabgacha yoshda) to'rtinchi darajagacha (katta maktabgacha yoshda) borib taqaladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha yakka o'ynashadi (bir-biri bilan o'zaro



o'yinlar, individual), chunki ular hali bir-biri bilan muloqot qilishni, ro'llarni va o'yin materialini taqsimlashni bilishmaydi. O'yinlar mavzusi asosan maishiy, hayotdan olinadi: olgan taassurotlari, bevosita atrof-muhitni kuzatishlari asosida. Ushbu o'yinlarga: «qiz va ona», «bolalar bog'chasi», «mashina haydovchisi», «shifoxonada davolanish» kabilar kiradi. Bunga misol qilib quyidagi o'yinni keltirishimiz mumkin.

“Qanday qilib birga o'ynash mumkin?”

Maqsad: bolalarga jamoaviy o'yin haqida tushuncha berish va ularning jamoaviy o'yin qoidalari haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash. O'yinlardagi yangi qoidalarini o'rganishga va ularga rioya qilgan holda o'ynashga jalb qilish.

Borishi: “Bizning guruhimiz bolalari birgalikda do'stona o'yinlar o'ynashadi. Har qanday o'yinlar uning ishtirokchilaridan ma'lum bir qonun-qoidalariga rioya etishni talab etadi. Chunki bu qonun-qoidalar o'yinni tartibga solishga va davomiyligiga yordam beradi. Barcha bolalarni kelishgan holatda o'yin o'ynashga majbur qilib qo'yadi. Nima deb o'ylaysizlar bolajonlar, jamoaviy o'yinlarimizda qanday qoidalariga rioya etishimiz kerak?”

To'g'ri javoblarni tarbiyachining o'zi ham tavsiya etadi. So'ng barcha javoblar tinglanib: Barakalla bolajonlar, to'g'ri aytdingiz, tarbiyachining quyidagi kichkinagina yordami bilan bolalar hamkorlikdagi o'yin qoidalarini to'g'ri aytdingiz:

- o'yinni boshlashdan oldin kim bilan va qanday o'yin o'ynashingizni hamda bu o'yinga nimalar kerak bo'lishini yaxshilab o'ylab oling;
- o'yin davomida samimiy, muloyim va xaqgo'y bo'ling;

- boshqa ishtirokchi bolalarni ham takliflarini bo'lmasdan eshitish;
- yoningizda o'yin o'ynayotganlarni hurmat qiling, ularga halaqit bermang, ularning o'yin tartibini buzmag, o'yinchoqlarini olib qo'ymang;
- ko'pchilik fikriga qarshi chiqmaslikni o'rganing;
- o'yin davomida yo'l berish lozim, o'rtoqlashish, bir-birini kutish va kerak bo'lsa yordamlashish zarur;
- urishib talashish mumkin emas;
- o'yin yakunlangandan keyin barcha o'yinchoqlarni joy joyiga qo'yish zarur.

Yakunlash: O'ylab ko'ringchi, siz ushbu qoidalariga rioya etayapsizmi? (Bir-biri bilan ahil inoqlikda, urushmasdan o'yin o'ynayotgan bolalarni misol qilib keltiring); 3-suhbat: ertakni sahnalashtirish orqali bolalarni do'stlikga, mehr-oqibatga va axloqiy sifatlarini shakllantirishga o'rgatish.

Bola ma'lum bir ro'lni o'z zimmasiga olar ekan, kamdan-kam hollarda bu ro'lga mos ravishda o'zini tuta oladi. Bolalarga hissiy xatti-harakatlarini boshqarish, harakatli ro'l o'ynash mushkullik tug'diradi. Dastlab o'yin faqat individual ko'rinishlar bilan kechadi, lekin vaqt o'tishi bilan ro'lli dialog rivojlanadi, xayoliy suhbatdosh paydo bo'ladi. Harakatlarni syujet-ro'lli o'yin o'yinchoqlari bilan o'zlashtirgan bolalar, o'yinda o'rin almashtiruvchi buyumlardan erkin foydalanadilar, yo'qolgan tematik o'yinchoqlarni boshqa buyumlar bilan almashtira oladilar. Asta-sekin syujet-ro'lli o'yin o'zgaradi, va natijada bitta o'yindan ikki va undan ortiq bola ishtirokidagi qo'shma o'yinga aylanadi.

Bu o'tish quyidagicha amalga oshiriladi: birinchidan, bola biron mavzudagi o'yinga qiziqib qoladi, so'ng qisqacha o'yinga kiritiladi va bolalar yana tarqalib ketadi.



Biroq maishiy hayotni chuqur idrok etishi natijasida bolalar kattalarning bir-birlari bilan o'zaro muloqotini anglay boshlaydilar va ushbu holatni syujet-rolli o'yin ko'rinishida, do'stlari bilan o'ynashga harakat qiladilar. Albatta bunday holatda bir necha ro'llarni o'z ichiga olgan o'yinni tashkil etish zarurati tug'iladi va o'yinning borishi hamda qoidalarini bolalar bilan muhokama qilinadi. Kichik guruhlarda o'yin boshlashning sharti tarbiyachining taklifi bilan bo'lsa, keyingi guruhlarda bolalarning takliflariga asoslanadi. Odatda, o'yinlar qisqa muddatli bo'lib, 10-15 daqiqagacha, katta va tayyorlov guruhlarida 20-25 daqiqagacha davom etadi. Bularning barchasi o'yinning rivojlanish darajasini xarakterlaydi, uning

asosiy mazmuni predmetlar bilan harakatli o'yinlar hisoblanadi.

Shunday ekan, syujet-rolli o'yinlar o'zlarining ichki tuzilishi nuqtai-nazaridan bola faoliyatining alohida tipini namoyon qilib, ular o'zlarida o'yinli va real harakatlarning mos kelmasligi orqali atrofdagi voqelikka ijodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi, bu esa yangi, tasavvur qilinayotgan mazmunni hosil qiladi. Tasavvur qilinayotgan vaziyat shart-sharoitlari bolani o'ziga jalb qiladi, uning fikrlashini bemalol qiladi, erkin ijodiy faoliyat uchun maydonni ochib beradi, bularning barchasi rolli xulq-atvor orqali, ya'ni, syujetda berilgan harakatlar va munosabatlar orqali ifodalanadi.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802 - sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan maktabgacha ta'lim muassasalari uchun «Ilk qadam». Maktabgacha ta'lim muassasalari davlat o'quv dasturi.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-jild. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. – 540 b
4. Фрейд А. Психология «Я» и защитные механизмы. – М.: Педагогика-Пресс. 1993
5. Выготский, Л.С. Игра и ее рол в психическом развитии ребенка. Вопросы психологии. 1996. №6